
18 NOYABR - O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT BAYROG'I QABUL QILINGAN KUN



Yurtim bayrog'i

Hayotda har narsaning

Oddiysi bor, ulug'i.

Lekin bayroqlar ichra

Qadrli yurtim tug'i.

Qiyosdan qalbim chulg'ar

Faxr degan hissiyot,

Manba guvoh, tug'imiz

Yoshi ming yildan ziyod.

Garchi, osiy emasmiz,

Tug'ga qo'rganmiz ixlos.

Muqaddas mato Shiroq,

Muqannalardan meros.

Har tug'da turli chizma,

Kenguru, sher, burgut, sor,

Bizning bayroqda hayot,

Mangu osmon aksi bor.

Tiriklikning ramzidir

Bayroqdagi moviy rang.

Temur tug'i hilpirab

Taratar go'yo jarang.

Bayroqdagi oq tasvir

Charag'onlik timsoli.

Umr - o'n ikki yulduz,

E'tiqoddir hiloli.

Qizil chiziq - jo'shqin qon,

~~O'ziga bek - asllik.~~

Shodumonlik belgisi

Bayroqdagi yashillik.

Har bir rangda ming ma'no,
Ezgu maqsad mujassam.
Tug' tutganga tasanno,
Bayroqni asrash – qasam.
Anglagaydir dunyoning
Xaritasiga boqqan,
YEr uzra O'zbekiston
O'xshab ketar bayroqqa.
Zamonaning da'vati -
Zabt etmoq ilm tog'in.
Madhiyamiz yangratib,
Ko'tarmoq yurt bayrog'in.

Xurshid NURULLAYEV.

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#),

2022-11-18 08:15:43